

Oriental Journal of Education



THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE REHABILITATION OF LOW-INCOME FAMILIES

Nargis Yuldashevna Razzakova

Lecturer, Department of Psychology and Sociology

Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

nargisrazzakova2020@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, Ministry of Civil council and family support, digital economy, social support, start-up, family, employment.

Received: 27.10.25

Accepted: 28.10.25

Published: 29.10.25

Abstract: In this thesis, the author focuses on the activity priorities of the newly established Ministry of Civil council and family support in Uzbekistan. Some proposals based on national traditions and international experience are put forward to improve the social status of low-income families and improve their living atmosphere in the conditions of digital economy.

KAM TA'MINLANGAN OILALARNI REABILITATSIYA QILISH SHAROITIDA XALQARO TAJRIBANING AHAMIYATI

Nargis Yuldashevna Razzakova

"Psixologiya va sotsiologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat til va adabiyot universiteti

nargisrazzakova2020@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, O'zbekiston Mahallalar uyushmasi, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, startap, oila, aholi bandligi.

Annotatsiya: Mazkur tezisda muallif O'zbekistonda yangi tashkil etilgan O'zbekiston Mahallalar uyushmasi faoliyatining ustuvor masalalariga to'xtaladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy ahvolini o'nglash, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash borasida milliy an'analar va xalqaro tajribaga asoslangan takliflar ilgari suriladi.

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА В РЕАБИЛИТАЦИИ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ

Наргис Юлдашевна Раззакова

Преподаватель кафедры «Психология и социология»,
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Доктор философии (PhD) по социологическим наукам

nargisrazzakova2020@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Узбекистан, Ассоциация махаллей цифровая экономика, стартап, семья, занятость населения.	Аннотация:	В диссертации автор рассматривает приоритетные задачи деятельности недавно созданной в Узбекистане Ассоциации махаллей Узбекистана. На основе национальных традиций и международного опыта выдвигаются предложения по улучшению социального положения малообеспеченных семей и условий их жизни в условиях цифровой экономики.
------------------------	--	-------------------	--

Kirish. Oila – jamiyatning negizi, boshlang‘ich bo‘g‘ini ekanligi bugun inkor etib bo‘lmaydigan haqiqat. Uning mafkuraviy va g‘oyaviy ta‘lim-tarbiya jarayonidagi rolini e‘tirof etmaslikning iloji yo‘q [2]. Globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan yangi tendensiyalar ta‘sirida oila omilining shaxsning ijtimoiylashuvida tutgan roli qanday ko‘rinish kasb etadi, Yuval Xarari ta‘kidlaganidek, bu muammoni liberallashuv hisobiga hal etgan ma‘qulmi, yoki milliy an‘analari, o‘ziga xos “qobiqlar”dan foydalanish talab etiladimi [3].

O‘zbekistonda boshqa post-sovet makonidagi davlatlardan farqli ravishda oila institutining mohiyati milliy qadriyat va an‘analari, diniy-axloqiy tushunchalar, qolaversa, huquqiy normalar bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Bu boradagi so‘nggi yangilanishlar ham oilaning jamiyatdagi rolini oshirish, uni himoyalash, gender tengligi masalasi nuqtayi nazaridan oila va jamiyatda ayollarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, voyaga yetmaganlarning risoladagidek ta‘lim-tarbiya olishlarini ta‘minlash kabi maqsadlarga yo‘naltirilganini ta‘kidlash o‘rinlidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 fevraldagi farmoniga ko‘ra O‘zbekistonda yangi – Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va uning joylardagi hududiy tashkilotlari ta‘sis etildi. Vazirlik oldiga bugungi jamiyatimizda modernizatsiya va globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni bartaraf etish, jamiyatda barqaror va sog‘lom turmush tarziga rioya qilinishini ta‘minlash, shu bilan bir qatorda, xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish kabi vazifalar qo‘yildi. Endigi masala ana shu vazifalarning qanchalik muvaffaqiyatli bajarilishida.[1]

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqaro tajribaga tayangan holda bugungi kunda yuqoridagi masalalarga yondashuvlarni aniqlab olish mumkin. O'z vaqtida AQShda ham bu masalada xalqaro tajribaga murojaat qilingan.[4]

Avstraliyaning Nyukasl universitetida aynan ushbu masalaga bag'ishlangan o'quv kursi mavjud bo'lib, unda keng qamrovli yondashuvlar o'rganiladi.[5]

Butunjahon miqyosida BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha organi UNESCO shafe'ligida oilalar farovonligi va jamiyat taraqqiyoti masalalari ko'p karra keng miqyosligi tadqiqotlar natijasida o'rganilgan, xulosalar berilgan.[6]

Xo'sh, raqamli iqtisodiyot sharoitida qanday qilib aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini tashkil etuvchi kam ta'minlangan oilalar masalasini ijobiy hal qilishga erishish mumkin? Buning sinalgan, har tomonlama universal yechimi mavjudmi? Javob: "Universal" bo'lmasa-da, sinalgan yechimlar talaygina. Faqat ularni kechiktirmay amaliyotga tatbiq etishgina jamiyatda kam ta'minlangan oilalar salmog'ini kamaytirish, ular daromadini, turmush sharoitlarini, jamiyat hayotiga faol kirib borishlarini ta'minlash bugun O'zbekistonda yangi tashkil etilgan davlat muassasasining ustuvor vazifalaridandir.

Yaponlarning turmush tarzi, ularning birlamchi e'tiborni muammolarning yechimiga emas, ularning ildiziga qaratishlari xalq maqollarida ham o'z aksini topgan: "Ochlik qiynagan kishiga baliq tutib berma, unga qarmoq ber, o'zi baliq tutib yeyishni o'rgansin", deyishadi sharqiy osiyolik qit'adoshlarimiz. Shunday bo'lsa-da, Yaponiya hukumati ham hali-hanuz mamlakatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning muammolari bilan kurashib kelayotir.[7] Tabiiy va iqtisodiy resurslar cheklangan, demografik muammolar avj olgan mamlakatdan bu kabi qiyinchiliklar kuzatilishi tabiiy. Xo'sh, yaponlar hali-hanuz kurashib kelayotgan muammoni hal qilish uchun O'zbekiston sharoitida qanday tadbirlarni qo'llash mumkin?

Tahlil va natijalari. Birinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlariga oliy ta'lim olishda imtiyozlar berish lozim. Umuman olganda, oliy ta'lim tizimida bundan boshqa islohotlar ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ikkinchidan, kam ta'minlangan oila farzandlarining chet tilini hamda xorijiy mamlakatlarda talab katta bo'lgan kasblarni egallashlarini muvofiqlashtirish maqsadida yangi vazirlik tomonidan zaruriy chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Zero, mamlakatimizdagi mavjud ishchi kuchi zaxirasi milliy iqtisodiyotimiz ehtiyojlaridan ortiqni tashkil etadi. Bunda yoshlarning ta'lim olishlari va kasb-hunar o'rganishlarini bepul asosda maqsadli jamg'armalar hisobidan tashkil etish samarali ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, aynan kam ta'minlangan oilalar farzandlari va xotin-qizlarni turli startap dasturlariga jalb qilish, ularning iqtidor va iste'dodlarini turli yo'nalishlarda kashf qilishga intilish lozim. Buning uchun mahallalarda, o'quv muassasalarida startap to'garaklarini tashkil qilish,

vebinarlar, OAV orqali startaperlik faoliyatini targ'ib qilish, bu borada turli tanlovlar, grantlar tashkil qilish, muvaffaqiyatli startap mualliflarini rag'batlantirish, ish bilan ta'minlash, shaxsiy biznesini tashkil qilishi uchun beg'araz ko'maklashish lozim.

Dunyoning eng yosh milliarderi Mark sukrerberg faoliyatiga bag'ishlangan "Ijtimoiy tarmoq" filmidagi epizodlardan birida Xarvard universiteti Prezidenti Markning ustidan shikoyat qilgan talabalarga qarata "Garvard bitiruvchilari ish qidirishlari emas, ish yaratishlari kerak" deya xitob qiladi.[8] Bu xitobning mohiyatini tushunish uchun zamonaviy ta'lim tendensiyalaridan xabardor bo'lish lozim. Mamlakatimizdagi nufuzli OTM bitiruvchilarida ham aynan mana shunday maqsad hukmron bo'lishiga erishish lozim. Shundagina yurtimizda oliy ta'limdan oldiga qo'yilgan rejalar adolatli amalga oshgan bo'ladi – oliy ma'lumotli degan nom nufuzi jihatidan jamiyatning quyi qatlamlariga ijobiy ta'sir o'tkazishni boshlaydi. Bu – to'rtinchidan.

Beshinchi va aynan muhim bo'lgan jihat – bandlik va mehnat munosabatlarida Internet-modelli loyihalarni ishga tushirish hamda ularni aholining keng qatlamlari o'rtasida targ'ib qilishdan iborat. Bunda masofadan turib ishga joylashish, masofadan turib muayyan ishlarni bajarish, har mavsumda sanoqli martagina takrorlanadigan qisqa muddatli xizmat safarlarini inobatga olmaganda tor ofisda o'tirgan holda ishlashdan voz kechish nazarda tutilmoqda. Bu ham aslida xorijiy tajribaning eng ilg'or namunasidir.[9]

Xulosa va takliflar. Demak, yaqin kelajakda O'zbekistonda yangi tashkil etilgan vazirlik jamiyat hayotiga yangi tendensiyalarni olib kirishidan umid qilsak bo'ladi. Zero bu yurtimizda oilalar totuvligi va farovonligidek ulug'vor qadriyatning butun dunyoda yetilib kelayotgan demografik muammolar soyasida qolib ketishining oldini olishga qaratilgan eng muhim va ustuvor vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zR Prezidentining farmoni. "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" // O'zR Prezidentining Rasmiy veb-sayti // <https://president.uz/uz/lists/view/3368> [27.03.2020]

2.Каримов И.А. "Юксак маънавият – енгилмас куч". - Т.: "Маънавият" – 2008. 78-бет.

3.Yuval Noah Harari, Dr. "21 Lessons for the 21th Century". Publisher: Spiegel & Grau – 2018. 106-бет.

4.Abbot P., D'Ambruoso L. TY - Fostering policy support for child and family wellbeing- Learning from international experience increased policy recognition of family and child health and wellbeing within the USA and internationally // SSRN Electronic Journal, 2018/12/20 // <https://www.researchgate.net> [27.03.2020]

5. International Perspectives on Family policy. University of Newcastle, Australia // <https://www.newcastle.edu.au/course/HLSC6510> [27.03.2020]
6. Review of international experience and best practice in family literacy // UNESCO Institute for Lifelong Learning // <https://uil.unesco.org/> [27.03.2020]
7. Sekine Yuki, The rise of poverty in Japan: the emergence of the working poor. Japan Labour Review, Vol. 5, No. 4, 2008. pp. 51-66 бет.
8. David Fincher, "Social network" (movie) – 2010. 102-бет.
9. Fried J., Hansson D.H. "Remote: office not required". 2018. 41-бет.